

Aliyeva Oygul Baxramovna  
 Abu Rayxon Beruniy nomli  
 Urganch davlat universiteti  
 tarix kafedrası o'qituvchisi  
[alievaoygul653@gmail.com](mailto:alievaoygul653@gmail.com)

## QADIMGI XORAZM XUDUDIDA ANTIK DAVR ZOOMORF XAYKALLAR TASNIFI VA UNING ZARDUSHTIYLIK DINI BILAN BOG'LIQLIGI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qadimgi Xorazm xududida topilgan zoomorf(xayvon) xaykallarning topilishi va ularning zardushtiylik dini bilan bog'liqligi aniqlanadi va taxlil qilinadi. Olimlarning fikricha zardushtiylik dini Xorazmda paydo bo'lgan olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Xorazmda eng qadimiy xaykallar topilib o'rganilgan. Ushbu xaykallarning tasnifida biz zardushtiylik dini elementlarini kuzatamiz.

**Kalit so'zlar:** zoomorf, riton, Anqa qa'la, Gopatshoh,

### КЛАССИФИКАЦИЯ АНТИЧНЫХ ЗООМОРФНЫХ СКУЛЬПТУР НА ТЕРРИТОРИИ ДРЕВНЕГО ХОРЕЗМА И ИХ СВЯЗЬ С ЗОРОАСТРИЗМОМ

**Аннотация.** В данной статье определяется и анализируется место находок зооморфных (животных) скульптур, обнаруженных на территории древнего Хорезма, а также их связь с зороастрийской религией. По мнению ряда исследователей, элементы зороастризма проявились в Хорезме; проведённые археологические исследования позволили выявить и изучить наиболее древние памятники-скульптуры региона. В предлагаемой классификации этих скульптур отмечаются характерные элементы, соотносимые с зороастрийскими религиозными представлениями.

**Ключевые слова:** зооморфный; ритон; Анка-кала (Анка қаъла); Гопатшоҳ.

### CLASSIFICATION OF ANTIQUE ZOOMORPHIC SCULPTURES IN THE TERRITORY OF ANCIENT KHWAREZM AND THEIR RELATIONSHIP TO ZOROASTRIANISM

**Annotation.** This article identifies and analyzes the find contexts of zoomorphic (animal) sculptures discovered in the territory of ancient Khwarezm and examines their connection with the Zoroastrian religion. According to a number of researchers, elements of Zoroastrianism manifested in Khwarezm; archaeological investigations have made it possible to uncover and study the region's most ancient sculptural monuments. The proposed classification of these sculptures highlights characteristic features that can be correlated with Zoroastrian religious concepts.

**Keywords:** zoomorphic; rhyton; Anqa Qala; Gopatshah (Tonamuoh)

Xorazm — O'rta Osiyoning qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biridir; uning katta qismini cho'l hududlari egallagan bo'lib, u yerda qadimdan xo'jalikning asosini ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvachilik tashkil etgan. Shuning uchun xam Xorazmda zoomorf tasvirlar tushirilgan xaykallar eng qadimgi manzilgoxlarda topilgan. (Zoomorf tasvirlar — bu hayvonlar shaklidagi, ko'pincha mifologik va afsonaviy qahramonlar, jonzotlar obrazida inson yoki boshqa mavjudotlar bilan uyg'unlashgan tasvirlar bo'lib, O'zbekiston san'atida (ayniqsa, ko'chmanchilar san'ati, qadimgi davrlar va o'rta asrlarda) keng tarqalgan, qadimiy folklor, diniy e'tiqodlar va madaniy o'zaro aloqalar aksidir. Juda ko'p uchraydigan sopol idishlar orasida tuya va eshaklarda olib yuriladigan suvdonga o'xshash idish siniqlaridagi rasmlar alohida ko'zga tashlanib turadi.

**1-rasm. Anqa qa'ladan topilgan bir o'rkachli tuya tasvirlangan ostadon.**

Baqtriya tuyasining (ikki o'rkachli tuya) tasvirlari bu yerda asosan kulolchilik buyumlarida uchraydi. Hozirgi kunga qadar Baqtriya tuyasi haykalchasining yagona topilmasi miloddan avvalgi IV-II asrlarga oid diniy inshoot — Qo'yqirilgan qal'adan topilgan Aftidan, tuya mingan chavandoz tasviri eng keng tarqalgan ko'rinish bo'lgan. Xorazmda antik davrda xayvonlarni iloxiylashtirish kengayib boradi. Ayniqsa dehqonchilik rivojlangan sari xayvonlarning tasvirlari ham ko'paya boradi. Sababi xayvonlar insonlarga ko'plab foyda keltirgan. Ba'zi arxeologik qatlamlarda itning tasviri xam topilgan. It zardushtiylik dinining Videvdad qismida marxumni narigi dunyoga kuzatuvchi xayvon deb talqin qilinadi. Xozirgi zamon zardushtiy jamoalari fikriga ko'ra it eng muqaddas jonzot. Uning o'limi inson o'limi bilan tenglashtirilgan. O'lgan itning jasadiga nazar solish man qilingan. Vendidat bo'limida shunday deb yozilgan: "Kimda kim itni qasddan o'ldirsa ming darra bilan jazolansin". Demak itlarni muaqaddaslashtirish va uni ikkita kuch tasvirida ifodalash zardushtiylik e'tiqodida mavjud bo'lgan. Bundan tashqari otlarni xam muqaddaslashtirishgan. Otlarni yarim inson yarim kush tasvirida xam ifodalangan tasvirda ishlangan barelef tasvirlar xam topilgan. Bunday mifologik otlar xukumdorlar belgisini ifodalagan. Qanotli ot tasviri ko'plab xalqlar mifologiyasida qatnashgan. Ushbu qopqoqdagi tasvir xaqida yana shuni aytish mumkinki Birinchidan, tasvirlangan mavjudot, shubhasiz, qadimgi Xorazm xalqlarning tasavvur mahsuli ekani tushunarlidir. Bu mifologik mavjudotni rus arxeologi Sergey Bolelov fikricha — Gopatshohdir: "Agar «Avesta» matnlari tahlil qilinsa, u nur va ezgulik timsoli bo'lgan hamda zulmat va yovuzlik xudosi Angra-Maynyuga qarama-qarshi qo'yilgan eroniy iloh — Ahuramazdaning yaratgan maxluqlaridan biridir" deb yozadi olim. Tasvirning pastki qismida aks etgan detallar, ya'ni tepaliklar va yerdan unib chiqayotgan daraxt alohida ma'no kasb etadi. Uni «dunyo daraxti», ya'ni butun olamni tutib turuvchi va Ahuramazda tomonidan yaratilgan o'zak (o'q) bilan qiyoslash mumkin. Ikki yon tomondagi doiralarni esa Quyosh va Oy deb talqin qilish mumkin. Ya'ni, ushbu relef orqali biz dunyoning yaralishi haqidagi afsonani tasavvur qilishimiz mumkin. Gopatshoh tasviri tushirilgan ushbu qopqoq o'z turida yagona — dunyoning hech bir joyida bunday ashyo yo'q. Gap shundaki, biz hatto bunga yaqin keladigan boshqa tasvirlarni ham bilmaymiz. Bizga Gopatshohlarning sopol buyumlarga chizilgan tasvirlari ma'lum, ammo ular butunlay boshqacha. Ushbu relefda yaqqol ko'rinib turgan bu uslub, bu ikonografiya takrorlanmasdir va biz boshqa bunday namunani bilmaymiz. Garchi uning prototipi Ossuriya releflari bo'lgan deb to'laqonli ishonch bilan ayta olsak-da. Mesopotamiya hududida, xususan, Nineviyada qanotli buqalarning tasvirlari bizga ma'lum, biroq ular aynan qanotli buqalardir, Gopatshohlar emas. Ya'ni, Xorazmda biz madaniyatlarning — eroniy, xorazmiy va qisman qadimgi Mesopotamiya madaniyatlarining sintezini (uyg'unlashuvini) kuzatamiz. Uning o'ziga xosligi ham shunda — u ko'plab an'analarni o'z ichida birlashtirgan. u idishning bir qismidir. Qopqoqlar bilan xumchalar, ko'zalar va shu kabilar yopilgan. Ammo bu qopqoq o'z-o'zidan noyobdir. Katta ehtimol bilan, u devorga osib qo'yiladigan qopqoq bo'lgan. Masalan, agar hozirgi davrga nazar tashlasak, devoringizda osig'liq turgan tasvirli tarelkani tasavvur qiling. Ehtimol, bu qopqoq ham biror kohinning devorida osig'liq turgan va unga o'zi aytib bermoqchi bo'lgan afsonani eslatib turishga xizmat qilgan. U o'z xonasidan chiqqanida, hovlida odamlar to'plangan bo'lardi; u ushbu qopqoqqa qarab, dunyoning yaralishi haqidagi butun syujetni xayolidan o'tkazar va buni ibodatxonaga kelganlarga muayyan kunlarda, muayyan bayramlarda so'zlab berardi.

Zero, zardushtiyalarda bayramlar ko'p bo'lgan. Hosil bayrami, Amudaryo toshishi bayrami bo'lgan. Ehtimol, agar Gopatshohni suv stixiyasi (tabiati) bilan bog'liq mifologik mavjudot deb bilsak, ushbu afsona yoki u bilan bog'liq bayram Amudaryoning navbatdagi toshishi, kanallarning to'lishi va dalalarning sug'orilishi kabi voqealarga to'g'ri kelgan bo'lishi mumkin. Afsuski, buni aniq aytish qiyin. Biz barcha ushbu tasvirlarni formal tahlil nuqtai nazaridan ko'rib chiqmoqdamiz va bizgacha yetib kelgan afsonalarni ushbu tasvirlarga tatbiq etmoqdamiz. Biz bu afsonalar aslida qancha bo'lganini bilmaymiz, xuddi arxeologiya va paleolingvistika kabi, bizgacha yetib kelgan juda oz miqdordagi ma'lumotlar bilan cheklanamiz.»



2-rasm. Kalali gir2 madaniy qatlamidan topilgan Ot tasvirli ritonlar.

Ot tasviri tushgan ritonlar xaykalchalar Qadimgi Xorazmning Qo'yqirilgan devoriy rangtasvirning eng qadimiy namunasi Qo'yqirilgan qa'la rasadxonasi qazishmalari paytida topilgan bo'lak bo'lib unda

3-rasm. Kalali gir madaniy qatlamidan topilgan qopqoq ustiga ishlagan qanotli ot tasviri.

kamondan o'q tortayotgan soqolsiz yosh yigit tasvirlangan.

Ot tasviri to'g'risida Sergey Bolelov yana shunday fikr bildiradi: «Men ot tasvirlangan ritonga shunday tavsif beraman. Birichidan nima uchun aynan ot? Gap shundaki, hind-yevropa an'anasida ot hamisha muqaddas hayvon hisoblangan. Hali bronza davridan boshlab, ya'ni miloddan avvalgi III ming yillikdan buyon biz otlar bilan birga ijro etilgan dafn marosimlarini bilamiz. Ya'ni otlar qurbonlik qilingan.

Antik davrdagi hind-yevropa an'analarida esa ot — Mitra xudosining hamrohidir. Aynan to'rtta ot qo'shilgan aravada Mitra osmon falagiga ko'tariladi, aynan shu aravada u butun yer yuzi va osmonni aylanib chiqadi, aynan shu otli aravada u tartib va qonunlarga rioya qilinishini kuzatib boradi. Ya'ni nafaqat hind-eron, balki hatto keyingi yunon miflarini olsak ham, har qanday afsonada ot — bu Mitra, ot — bu Quyosh va hokazo, demak, u muqaddas hayvondir. Va bu o'rinda ot shaklidagi protomali (hayvonning old qismi ishlangan) ritonlar ibodatxonada bo'lganini eslash mumkin. Nima uchun?» «Ehtimol, inson qasamyod qilganida, ya'ni biror narsa va'da berganida, bu qasamyod qaysidir oliy iloh tomonidan tasdiqlanishi (muqaddas qilinishi) lozim edi. Qonun, ahd (shartnoma) va tartib xudosi bo'lmish Mitradan o'zga yana kim ham bunga guvohlik berishi yoki rahnamolik qilishi mumkin edi? Eng qiziqarli jihati shundaki, «Avesta» matnlarida shunday parchalarni uchratish mumkinki, agar inson o'z ahdini (shartnomasini) buzsa, Mitra o'z aravasida uni quvib yetib, jazolaydi. Albatta, bu so'zma-so'z emas, ammo ma'no-mazmuni shunday. Ya'ni, bu o'rinda ot shunchaki hayvon emas, balki ilohiylik timsoli sifatida namoyon bo'ladi.» degan fikrni keltiradi. Qalali-qir 2 yodgorligidan topilgan zoomorf (hayvon shakl) terrakotalar orasida ot figuralaridan tashqari echkilar, xo'kizcha, qo'chqorlar, kiyik va, ehtimol, tuyaning terrakota tasvirlari bo'laklari ham bor. Qo'chqorlardan biri dumbador (quyuqli) zotga mansub bo'lib, bu tasvirda maxsus ta'kidlangan. Boshqasining orqa qismida esa yopishtirilgan bo'rtma bo'lagi bor, bu ehtimol suvoriy (chavandoz) figurasining qoldig'idir. Buqa (yoki sigir) faqat bitta boshli shaklida taqdim etilgan.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki Xorazm vohasida qadimdan me'morchilik bir necha xalqlar negizida yaratildi. Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra bu elementlar forsiy deb qaralsa boshqa bir olimlar Bobil ossuriya xalqi memorchiligiga yaqin deb takidlashadi. Xalqlarning madaniyat uyg'unligi orqali Xorazmda o'ziga xos madaniyat va me'morchilik yaratildi. Zaminda zardushtiylik oldingi diniy qarashlar bilan uyg'unlashgan xolda rivojlandi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov I. Ko'hna xarobalar sirlari – T.: O'zSSR, 1961. - B. 55.
2. Tolstov S.P. Kuy kirilgan kala. // TXAEE. – M.: 1967. S.179
3. Meytarchiyan M. Pogrebalnye obryady Zoroastrizma. M.: Staryy sad. 2001.- S.65.
4. Sarianidi V.I. Zadolgo do Zaratushty (Arxeologicheskie dok azatelstva protozoroastrizma v Baktrii i Margiane).- M.: Staryy sad, 2010.- S.66.
5. Bolelov S . Istoriya drevnego Xorezma pyat eksponatov muzeev Vostoka//Jurnal.<https://arzamas.academy/mag/608-oriental>.
6. Vaynberg B.I. Kultovaya keramika i pamyatniki iskusstva//Kalaly-Gyr2 Kultovyy sentr v Drevnem Xorezme IV- II vv. do n.e. - M.: IVL RAN, 2004. - S. 164-187



Рис. 6. Крышка керамического сосуда с рельефным изображением Гопатиаха. Калалыгыр 2. Хорезм

**Jonqobilov Jaxongirbek Normoʻmin oʻgʻli**  
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Tarix va falsafa kafedrası oʻqituvchisi  
[j.jonqobilov@dtpi.uz](mailto:j.jonqobilov@dtpi.uz)

## **SURXON-SHEROBOD MINTAQASI BOʻYICHA PAXTACHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA MODDIY TEXNIKANING OʻRNI**

**Annotatsiya.** Surxon-Sherobod mintaqasida paxtachilik tarmogʻini rivojlantirishda moddiy-texnika bazasining oʻrni va ahamiyatini tahlil qilishga bagʻishlangan. Mazkur davrda sovet hukumatining agrar siyosati doirasida mintaqaga kirib kelgan yangi texnik vositalar, xususan, paxta terish mashinalari, yuqori quvvatli traktorlar va agrotehnik xizmat koʻrsatish tizimlarining samaradorlik darajasi oʻrganilgan. Surxon-Sherobod vohasining oʻziga xos tabiiy-iqlimiy sharoiti, yerlarning shoʻrlanish darajasi va relyef xususiyatlari hisobga olingan holda, texnikadan foydalanishning sifat koʻrsatkichlari qiyosiy tahlil etiladi.

Maqolada mexanizatsiyalash jarayonlarining paxta hosildorligini oshirishdagi ijobiy natijalari bilan bir qatorda, texnikaga xizmat koʻrsatishdagi kamchiliklar, kadrlar malakasi va ekstensiv rivojlanishning salbiy oqibatlari ham yoritilgan. Tadqiqot natijalari mintaqa iqtisodiy tarixini tushunish va qishloq xoʻjaligini texnik modernizatsiya qilish boʻyicha tarixiy tajribadan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

**Kalit soʻzlar.** Surxon-Sherobod, paxtachilik, moddiy-texnika, mexanizatsiya, samaradorlik, agrosanoat majmuasi, sovet agrar siyosati, agrotehnika, hosildorlik, tarixiy tahlil.

## **РОЛЬ МАТЕРИАЛЬНОЙ ТЕХНИКИ В РАЗВИТИИ ХЛОПКОВОДСТВА В РЕГИОНЕ СУРХАН-ШЕРАБАД**

**Аннотация.** Данная статья посвящена анализу роли и значения материально-технической базы в развитии хлопководства в Сурхан-Шерабадском регионе. В исследовании рассматривается эффективность внедрения новых технических средств, в частности хлопкоуборочных машин, мощных тракторов и систем агротехнического обслуживания, поступивших в регион в рамках аграрной политики советского правительства того периода. Проводится сравнительный анализ качественных показателей использования техники с учетом уникальных природно-климатических условий Сурхан-Шерабадского оазиса, степени засоления почв и особенностей рельефа.

В статье, наряду с положительными результатами процессов механизации в повышении урожайности хлопка, освещаются недостатки в техническом обслуживании, вопросы квалификации кадров и негативные последствия экстенсивного развития. Результаты исследования позволяют глубже понять экономическую историю региона и сделать выводы из исторического опыта технической модернизации сельского хозяйства.

**Ключевые слова:** Сурхан-Шерабад, хлопководство, материально-техническая база, механизация, эффективность, агропромышленный комплекс, советская аграрная политика, агротехника, урожайность, исторический анализ.

## **THE ROLE OF MATERIAL TECHNIQUES IN THE DEVELOPMENT OF COTTON GROWING IN SURKHAN-SHERABAD REGION**

**Annotation.** This article is devoted to the analysis of the role and significance of the material and technical base in the development of the cotton industry in the Surkhan-Sherabad region. The study examines the efficiency of new technical tools, particularly cotton harvesters, high-capacity tractors, and agrotechnical service systems introduced to the region within the framework of the Soviet government's agrarian policy during that period. A comparative analysis